

## Institutda xotira tadbiri o'tkazildi

2017 yil 30 yanvar kuni institutning asosiy binosi va Mashinasozlik fakulteti binosining ochiq maydonlarida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning tavallud topgan kuni munosabati bilan "Inson aziz – xotira muqaddas" mavzusida xotira tadbiri o'tkazildi.



Xotira tadbiri O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlandi va institutning yetakchi professor-o'qituvchilari hamda iqtidorli talabalari so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ma'naviy-iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy sohalarda qoldirgan boy merosining mazmun-morhiyati, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatorida o'rin tutishi, yoshlarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan barkamol etib tarbiyalash, shu bilan bir qatorda yuksak rivojlangan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida olib borilayotgan

islohotlarga javoban dahldorlik hissi bilan yashash kerakligi xususida soʻz yuritdilar.



Shuningdek, xotira tadbirida talabalar “Islom Karimov – istiqlol me’mori”, “Buyuklar oʻlmaydi, qalblarda mangu yashaydi” “Biz hech qachon hech kimdan kam boʻlmaymiz” “Islom Karimov va yoshlar”, “Islom Karimov – Oʻzbekiston mustaqilligining asoschisi, buyuk yoʻlboshchi” “Biz yoshlar Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidentidan minnatdormiz” mavzularida maʼruzalar qildilar hamda institutning “TMJ” yoʻnalishi 3-bosqich talabasi O. Odilov tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimovning xotirasiga bagʻishlangan “Bobom ruhi biz yoshlarda yashaydi” sheʼri ifodali oʻqildi. Tadbir Andijon viloyat televideniyesi tomonidan tasvirga olindi.





Tadbirda jami 3000 dan ziyod professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdilar.

